

REZYUME. Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida tasviriy san'at ta'limini tashkil etishning zamonaviy tendensiyalari va innovatsion yondashuvlar ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Tasviriy san'at fanining ta'lim tizimidagi o'rni, o'quvchilarning estetik didi, badiiy tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, XXI asr ta'lim talablariga mos ravishda interfaol metodlar, raqamli texnologiyalar, STEAM va 4K modeli elementlarini tasviriy san'at darslarida qo'llash imkoniyatlari o'rganilgan.

РЕЗЮМЕ. В данной статье научно-теоретически проанализированы современные тенденции и инновационные подходы в организации преподавания изобразительного искусства в общеобразовательных школах. Раскрыта роль предмета «Изобразительное искусство» в системе образования, его значение в развитии эстетического вкуса, художественного мышления и творческих способностей учащихся. Кроме того, исследованы возможности применения интерактивных методов, цифровых технологий, элементов STEAM и модели 4K на уроках изобразительного искусства в соответствии с требованиями образования XXI века.

SUMMARY. This article provides a scientific and theoretical analysis of modern trends and innovative approaches to organizing visual arts education in general education schools. The role of the subject "Visual Arts" in the educational system is revealed, emphasizing its importance in developing students' aesthetic taste, artistic thinking, and creative abilities. Furthermore, the study explores the possibilities of applying interactive methods, digital technologies, as well as elements of the STEAM and 4K models in visual arts lessons in accordance with the requirements of 21st-century education.

“MADANIY SIYOSAT” TUSHUNCHASI, TALQINI VA MODELLARI

M.Sh.Tadjikulova – *tayanch doktorant*
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Tayanch so'zlar: jamiyat, davlat, madaniyat, san'at, madaniy siyosat, madaniy hayot, “mozaika” madaniyati, madaniyat muassasalari, “chozilgan qo'l” prinsipi, metsenat, retrospektiv tahlil.

Ключевые слова: общество, государство, культура, искусство, культурная политика, культурная жизнь, культура "мозаика" учреждения культуры, принцип "протянутой руки," меценат, ретроспективный анализ.

Key words: society, state, culture, art, cultural policy, cultural life, "mosaic" culture, cultural institutions, “the arm's length” principle, patron, retrospective analysis.

KIRISH. Hozirgi sharoitda madaniy siyosat davlat siyosatining ustivor rivojlanish yo'nalishlaridan biri hisoblanib, u aholi hayot sifatining oshishi, jamiyatda munosabatlarning uyg'unlashuvi hamda davlatning ijtimoiy-qtisodiy hatdan faol rivojlanishi uchun muhim omil sifatida e'tirof etiladi.

Haqiqatdan ham, necha yillardan beri jamiyat va davlat aholining bo'sh vaqtini samarali tashkil etish orqali ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashga va madaniy hayotni qo'llab-quvvatlashga intilib keladi.

Bo'sh vaqtni mazmun va shakl jihatdan qanday o'tkazish masalasi insonning muayyan ijtimoiy, etnik va milliy guruhga mansubligiga bog'liq holda shakllanadi. Agar zamonaviy ijtimoiy-madaniy vaziyatga murojaat qilsak, bo'sh vaqt – jamiyat tomonidan anglangan zarurat sifatida namoyon bo'ladi.

Madaniy siyosatning mavjud emasligi yoki madaniyatning rivojlanmaganligi esa aholini bo'sh vaqtlarini boshqa usullar bilan o'tkazishga undaydi, kichik shaharlar, ayniqsa qishloq joylarida bu ko'pincha zararli odatlarga olib keladi, keyinchalik bunday zararli odatlar aholining sog'liq holati va umr davomiyligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. [1:394]

Fuqarolarning ijtimoiy va madaniy hayotini qo'llab-quvvatlash hamda mustahkamlash faqatgina ularning ma'naviy rivojlanishi uchun teng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan puxta o'ylangan va kuchli davlat siyosati bilan uzviy bog'liq holdagina samarali bo'lishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bugun hech bir davlat yoki hudud muayyan maqsadga yo'naltirilgan madaniy siyotsiz faoliyat yurita olmaydi, uni shakllantirish va amalga oshirish

muhim hamda kechiktirib bo'lmaydigan vazifaga aylangan, desak mubolag'a bo'lmaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Maqolani yozishda xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy maqolalaridan foydalanildi. Jumladan, I.R.Yudhishtir "Madaniy siyosat: Global tadqiqot sari", A.V.Yudina "Davlat madaniy siyosati: tushunchalar va modellar", I.I.Gorlova, T.V.Kovalenko va boshqalar "Mintaqaviy madaniy siyosat: metodologiya, institutlar, amaliyotlar", T.S.Bryukova "Mintaqada madaniyat muassasalari rivojlanishining ayrim tendensiyalari to'g'risida", A.Xalilova "Yaponiya: madaniy siyosat va madaniy diplomatiya" va boshqalar. Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda ilmiy izlanishlar olib borishning retrospektiv va qiyosiy tahlil metodidan foydalanildi.

Madaniy siyosat haqida so'z yuritishdan oldin, eng avvalo uning ma'no-mazmunini aniqlash lozim bo'ladi. Ayrim tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, madaniy siyosat butun dunyo sivilizatsiyasi davlatlariga xos bo'lib, uning mazmun-mohiyati ijtimoiy-iqtisodiy tuzum, diniy va siyosiy doktrinalarga bog'liq bo'lgan. Boshqa tadqiqotchilar esa madaniy siyosatni "XVIII asr oxirida Yevropada paydo bo'lgan" deb hisoblashadi.

"Madaniy siyosat" tushunchasiga ilk bor ta'rif 1967-yilda Monakoda bo'lib o'tgan YUNESKOning davra suhbatida berilgan bo'lib, ishtirokchilar madaniy siyosatni "davlatning madaniyat sohasidagi faoliyati asosini ta'minlaydigan operatsion prinsiplar, ma'muriy va moliyaviy turdagi faoliyat hamda tartib-taomillar majmuasi" sifatida talqin qilishni taklif etganlar. Madaniy siyosatni amalga oshirish esa "jamiyatning muayyan madaniy maqsadlarga erishishga qaratilgan ongli va puxta o'ylangan barcha harakatlar (yoki harakatsizlik), mavjud jismoniy va ma'naviy resurslardan samarali foydalanish orqali amalga oshiriladigan jarayon" sifatida ko'rib chiqilgan.

"Madaniy siyosat" tushunchasining ilk va eng keng tarqalgan talqini ko'p yillar oldin O.Jirard (1983) tomonidan aniq ta'riflangan edi. Uning fikriga ko'ra, "madaniy siyosat – ma'lum bir guruh tomonidan ko'zlangan va hokimiyat tomonidan amalga oshiriladigan, pirovard maqsadlar, amaliy vazifalar va vositalardan iborat

bo'lgan hamda yaxlit bir tizimga birlashtirilgan aniq va izchil tizim". [7:51]

A.V.Yudinaning fikriga ko'ra, "madaniy siyosat" tushunchasi davlat va jamiyat institutlarining faoliyati sifatida ilmiy muomalaga nisbatan yaqinda — atigi bir necha o'n yil avval kiritilgan bo'lib, shu vaqtda mazkur fenomen mohiyatini nazariy darajada anglashga qaratilgan ilk urinishlar amalga oshirilgan. U madaniy siyosatni ijtimoiy davlat siyosati doirasida ijtimoiy ko'makka muhtoj guruhlarni qo'llab-quvvatlashga, ularning madaniy huquqlarini ta'minlashga va ijtimoiy integratsiyasiga ko'maklashishga qaratilgan siyosiy yo'nalish sifatida e'tirof etadi. Suningdek, u madaniyatga, bir tomondan, aniq qiymatlar tizimi, ikkinchi tomondan esa, inson hayotiy faoliyatining barcha sohasiga yo'naltirilgan, oldindan bashorat qilinadigan va ta'sir ko'rsata oladigan vosita sifatida qaraydi. [8:58]

Yevropa Kengashi eksperti M.Dragichevich-Sheshichning fikriga ko'ra, madaniy siyosat — bu jamiyatda talab etilgan madaniy maqsadlarga erishish uchun tegishli choralar, mexanizmlar va harakatlar orqali amalga oshiriladigan ongli, maqsadli faoliyatdir. Shu bilan birga, u madaniyat sohasida jamiyatning rivojlanishiga oid barcha masalalar bo'yicha zarur qarorlar qabul qilishni ongli tarzda tartibga solish zarurligini alohida ta'kidlaydi.

Madaniyatshunos olim A.Ya. Fliyer esa madaniy siyosatni jamiyat va madaniy-ma'naviy mahsulot ishlab chiqaruvchi muassasalarning sotsiomadaniy modernizatsiyasiga oid ilmiy asoslangan qarashlari va tadbirlari majmuasi, shuningdek, ijtimoiy va madaniy hayotning yangi tamoyillari tizimi, ularni ilmiy va ta'limiy jihatdan ta'minlash choralari hamda maqsadli kadrlar tayyorlash jarayoni sifatida talqin etadi.

V.S.Jidkov va K.B. Sokolov madaniy siyosatni madaniy hayotni tartibga solishga qaratilgan maxsus faoliyat turi, deb hisoblasalar L.Ye.Vostryakov madaniy siyosatni davlat boshqaruvining bir qismi, ya'ni davlatning madaniyat sohasiga boshqaruvchining ta'sir ko'rsatishiga qaratilgan siyosiy jarayon ekanligini ta'kidlaydi.

S.B.Sinetskiy qayd etishicha, madaniy siyosat jamiyatda shakllangan ijtimoiy munosabatlar natijasi bo'lib, u hozirgi vaqtda tasodifiy ravishda yuzaga kelgan ijtimoiy-madaniy amaliyotlarni

o'tgan vaqt tajribasi asosida tekshirish va kelajakda shakllangan obrazga ekstropolyatsiya qilish asosida doimiy baholash jarayoni sifatida namoyon bo'ladi.

A.Xalilovning fikriga ko'ra, "Madaniy siyosat" bu millatning madaniyati, an'analari, tili hamda san'atini rivojlantirishga qaratilgan loyihalar hamda davlat dasturlaridir[6:153].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Madaniy siyosat keng tarmoqli bo'lib, siyosiy propaganda singari omma ongiga ta'sir etishi, ularning fikrini o'zgartirishi, jumladan, turli darajadagi hissiy fikrlashga ta'sir etishi mumkin. Bundan tashqari, madaniy siyosatni turli madaniyat muassasalarida, jumladan, muzeylar, kutubxonalar hamda turli ziyoratgohlarning obodonlashtirilishida, turli xalq amaliy san'ati namunalarining ardoqlanishida, turli jamoat tashkilotlari tomonidan o'tkazilgan yarmarkalar, mahalliy va xalqaro festivallar va madaniyat kunlari misolida ko'rish mumkin.

Boshqa tomondan, u davlat boshqaruv qarorlarini qabul qilish xususiyatlarini, me'yoriy hujjatlar mazmunini, qonunchilik qoidalarini, madaniyat muassasalarining (masalan, galereyalar, muzeylar, kutubxonalar, opera teatrlari va h.k.) tasnifi va vazifalarini belgilaydi. Ushbu muassasalar esa fuqarolarning turli badiiy shakllar va faoliyat turlarida ijodiy o'zini ifoda etishiga ko'maklashadi.

Madaniy siyosatning nozik jihatlaridan biri bu, bir mamlakatdagi madaniy siyosat boshqasidan farq qiladi, biroq, u eng avvalo, hamma joyda fuqarolar uchun san'at va ijodiy faoliyatdan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilashga, mamlakat fuqarolarining badiiy, musiqiy, adabiy va boshqa yutuqlarini targ'ib qilishga qaratilgan.

Ko'pchilik olimlar madaniy siyosat o'z davrining mahsuli va turli tarixiy davrlar uchun bir xil bo'lishi mumkin emas, deb hisoblaydi. Madaniy siyosat xatto, bir mamlakat miqyosida ham bir xil bo'lishi mumkin emas (ayniqsa, ko'p qatlamli va xilma-xil etnik-madaniy, til va diniy xususiyatlarga ega bo'lgan davlat haqida so'z borganda). Uning umumiy tamoyillari o'zgarmas bo'lishi mumkin, biroq mintaqaviy o'ziga xoslik (tarixiy va etnik an'analari, zamonaviy ijtimoiy-madaniy holat) albatta aniq chora-tadbirlar va ularning mazmuniga ta'sir ko'rsatib, madaniy siyosatning mahalliy variantlarini shakllantirishi tabiiydir. Madaniy siyosatni milliy, submilliy

darajada (masalan, AQSh shtatlari yoki Kanada provinsiyalarida bo'lgani kabi) yoki, mintaqaviy yohud mahalliy darajada (masalan, tuman, shahar hokimiyatlari muzey yoki madaniyat markazini tashkil etganda) amalga oshirish mumkin.

Milliy darajadagi madaniy siyosat musiqiy ta'lim yoki teatr dasturlarini deyarli hech qanday xarajatlersiz moliyalashtirishdan tortib, tijorat tashkiloti homiyligida davlat muzeyida badiiy ko'rgazmalar o'tkazishgacha, shuningdek, siyosiy tuzilmalar (madaniyat vazirliklari va bo'limlari, madaniyatni qo'llab-quvvatlashning turli xil jamg'armalari) hamda madaniyat muassasalarini (galereyalar, muzeylar, teatrlar va hokazo) tashkil etish kabi turli xil ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, davlat va madaniyat o'rtasidagi o'zaro ta'sir quyidagi sxema orqali ifoda etilishi mumkin: davlat – madaniy siyosat – madaniyat – jamiyat – davlat. Bunda davlat jamiyat rivojlanishini tartibga soluvchi sifatida strategik yo'nalish (madaniy siyosat)ni ishlab chiqadi va uni madaniy muassasalar faoliyati orqali tartibga soladi. Ushbu faoliyat jamiyatga ta'sir o'tkazishga qaratilgan bo'lib, u ta'lim sifatining oshishiga, aholini dunyoqarashining kengayishiga, estetik tarbiyalashga, eng asosiysi aholining sifatli dam olishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, ushbu yo'nalish aholida fuqarolik identiklikni rivojlantirishda, ayniqsa ularda o'tmish va bugungi kunga daxldorlik hissini shakllantirishda muhim hisoblanadi. Bu esa yuqorida ta'kidlab o'tilgan "davlat – madaniy siyosat – madaniyat – jamiyat – davlat" munosabatlarning uzviy bog'liqligini tasdiqlaydi.

A.Ya.Flier ham bu ikkita o'zaro bog'liq jarayonni strategiya va taktika darajasi deb to'g'ri ta'riflaydi. Bunday yondashuv madaniy siyosatning maqsadlari, vazifalari, usullari va vositalarini farqlash imkoniyatini ta'minlaydi. Olimning ta'kidlashicha, davlat madaniy siyosatining asosiy subyektlari strategiya darajasida rejalashtiruvchi va qaror qabul qiluvchi davlat hokimiyati organlari hisoblanadi. Ular qabul qilgan qarorlarni esa taktika darajasida madaniyat muassasalari va madaniyat markazlari amalga oshiradi. [5:14]

Shu o'rinda davlat va madaniyatning o'zaro munosabatlarining xilma-xil modellari mavjud bo'lib, ushbu modellar ko'p marta ilmiy tadqiqotlar mavzusiga aylangan. Bugungi kunda

madaniyatni rivojlantirishda davlatning roli masalasi rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar uchun o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Shu munosabat bilan madaniy siyosatning nazariy va amaliy modellariga retrospektiv nazar tashlash maqsadga muvofiqdir.

Ushbu muammoni konseptualashtirish bo'yicha dastlabki qarashlar XX asrning 60-yillari oxiriga borib taqaladi va tabiiy-ilmiy hamda gumanitar bilimlar integratsiyasi sohasida peshqadam bo'lgan fransuz olimi Abraam Molga tegishlidir. U "Madaniyat sotsiodinamikasi" asarida yaqin kelajak obrazi sifatida "mozaika" madaniyati konsepsiyasini ilgari suradi. Tadqiqotchi jamiyatning ma'naviy hayotini ommaviy kommunikatsiya kategoriyalari orqali semiotika va kibernetikaga asoslanib o'rganadi va bu jarayonlarda davlatning rolini aniqlaydi. U kuzatilayotgan jamiyat uchun eng xos bo'lgan ikki asosiy madaniy siyosat modelini - sotsiostatistik va sotsiodinamik modellarini ko'rsatib o'tadi. Molning fikricha, madaniyat sotsiodinamikasining asosiy vazifasi madaniyat rivojlanishi jarayonlarini maqsadli boshqarish va tartibga solish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish, ya'ni madaniy siyosatni konseptualashtirishdir. Bundan tashqari, madaniy siyosatning sifatini oshirishning asosiy omili sifatida stereotip qadriyatlarining tarqalishiga qarshi "xilma-xillik koeffitsiyenti"ni oshirish, shuningdek, zamonaviy "mozaika" madaniyatini ijtimoiy tashkilotning yangi axloqiy tamoyillari asosida ijodkor shaxslar madaniyatiga aylantira oladigan "ijtimoiy-madaniy" jadval elementlarining xilma-xilligini kengaytirish lozim. [4:232]

YUNESKO eksperti, Belgrad san'at universiteti madaniyat menejmenti va ommaviy axborot vositalari kafedrasi professori Milena Dragichevich-Sheshich madaniy siyosat modellarini ikki asosiy mezon: davlatning siyosiy tuzilishi va uning madaniy hayotdagi o'rni asosida ajratib ko'rsatgan. Tadqiqotchi prinsipial jihatdan bir-biridan farq qiluvchi liberal, davlat byurokratik (ma'rifatparvar), milliy-ozodlikka yo'naltirilgan va o'tish davri madaniy siyosati modellarini tavsiflab beradi.

Liberal madaniy siyosat madaniyat tovarlar va xizmatlarning erkin bozori hisoblanib, bunday jarayonlarda asosiy subyekti sifatida ijodiy industriyalar ishtirok etadi, xususiyl xayriya jamg'armalari esa moliyalashtiradi.

Byurokratik (ma'rifatparvar) madaniy siyosatda asosiy subyekt sifatida davlat ishtirok etadi, u ijtimoiy (davlat) buyurtma mexanizmi orqali amalga oshiriladi, nazorat esa keng tarmoqlangan siyosiy-g'oyaviy va ma'muriy apparat orqali ta'minlanadi. Ijodiy faollik darajasi, shuningdek, madaniy hayotning mazmuni va uslubi davlat tomonidan belgilab beriladi, davlatning o'zi esa madaniyat sohasining moliyaviy barqarorligi kafili sifatida namoyon bo'ladi. Bunday madaniy siyosat sobiq SSSR va uning ittifoqchilari, shuningdek, Fransiya va sotsialistik turdagi g'arb mamlakatlari (Shvetsiya) uchun xos bo'lgan.

Milliy-ozodlikka yo'naltirilgan madaniy siyosatda milliy madaniy an'analarni mustahkamlash ustuvor yo'nalish bo'lib, bu esa tendensiya jihatidan millatchilik va shovinizmga sabab bo'lishi mumkin. Bunday model sobiq koloniyalar va Sharqiy Yevropa davlatlari uchun xos bo'lib, odatda milliy ozchilik madaniyatiga, muqobil va eksperimental san'atga nisbatan salbiy munosabat tendensiyalarini yuzaga keltiradi.

O'tish davri madaniy siyosatida esa demokratik tamoyillarni joriy etishga harakat qilinadi, ammo bu jarayon ma'muriy-byurokratik usullar yordamida amalga oshirilganligi sababli turli ziddiyatlarni keltirib chiqaradi, xususan, madaniy siyosatning yo'nalishi millatchilikka moyil bo'lib qoladi. [3:37]

Ushbu yondashuvlarning qiziqish uyg'otadigan jihati shundan iboratki, bynda madaniy siyosat modellari undagi aktorning (individ, institut, guruh, muayyan jamoa — o'z harakatlarini boshqalarga yo'naltiradigan subyekt) roliga tayanib amalga oshiriladi.

YUNESKO eksperti, Bonndagi Madaniy siyosat tadqiqot instituti rahbari Andreas Vizand tomonidan ilgari surilgan modellarda madaniy siyosat tarkibiy elementlari aktorlarning (davlat, bozor va boshqalar) madaniy hayotni tartibga solish va moliyalashtirishdagi roliga ko'ra tavsiflangan. Jamoatchilik qo'llab-quvvatlashiga asoslangan madaniy siyosat davlat tomonidan amalga oshiriladi va moliyalashtiriladi, bu esa maxsus tashkil etilgan institutlar (san'at kengashlari va boshqalar) orqali bajariladi. Ushbu model an'anaviy turdagi madaniyat muassasalariga (teatrlar, kutubxonalar, muzeylar) yo'naltirilgan bo'lib, bunda ko'pincha menejmentning o'rni madaniyat mahsulotlari va

xizmatlari yaratuvchilariga nisbatan yuqoriroq bo'ladi. Bozorga yo'naltirilgan madaniy siyosat modeli madaniy hayotni tartibga solishning bozor mexanizmlariga va tashabbuskorlikka asoslangan moliyalashtirish tizimiga tayanadi. Shu bilan birga, yaratilgan mahsulotlarning rentabelligi ko'pincha san'atkor salohiyatining asosiy mezoni sifatida namoyon bo'ladi va bu ularning ijod erkinligini cheklaydi. Bunday turdagi madaniy siyosat asosan transmilliy xususiyatga ega, shu bois milliy madaniyatlar rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Kanada san'at kengashi ekspertlari, kanadalik tadqiqotchilar Garri X. Shartran va Kler Mak-Kafining madaniy siyosat modellari ilk bor 1980-yillar oxirida "Cho'zilgan qo'l prinsipi va san'at: xalqaro nuqtayi nazar – o'tmish, hozirgi zamon va kelajak" asarida taqdim etilgan bo'lib, keyinchalik bir necha bor tuzatishlar va aniqlashtirishlar kiritilgan. Siyosiy madaniyat modellarining so'nggi varianti G. Shartran tomonidan 2016-yil bahorida e'lon qilingan. Bunda madaniy siyosatni tasniflashda moliyalashtirish asosiy mezon sifatida olingan va u madaniyatga (muallif asarining asl matnida – tasviriy san'at siyosatiga) nisbatan to'rtta konseptual yondashuv doirasida ko'rib chiqilgan.

Davlat-yordamchi (ilhomlantiruvchi) madaniyat va san'atni ushlab qolingani solliqlar orqali, ya'ni "solliq xarajatlari" hisobidan moliyalashtiradi. Bunda siyosiy maqsad turli xil arzon havaskor ijodiy tashabbuslar faoliyatini qo'llab-quvvatlashdan iborat. Davlat-yordamchi aniq turdagi san'atni, uning uslublari yoki muayyan standartlarini emas, balki ijod jarayonining o'ziningina qo'llab-quvvatlaydi. Shu bilan birga, davlat-yordamchi madaniy siyosatining dinamikasi tasodifiy xususiyat kasb etadi, chunki san'atni qo'llab-quvvatlashdagi o'zgarishlar xususiy donorlarning o'zgaruvchan didi va xohishlarini aks ettiradi. Yordamchi-davlat sharoitida san'atkor yoki madaniyat muassasasining iqtisodiy maqomi homiylarining kassadagi ommaviy jozibadorligi, didi va moliyaviy holatiga bog'liq bo'ladi. Davlat-yordamchining yorqin namunasi sifatida AQShni ko'rsatish mumkin. Davlat "metsenat" (homiy) sifatida, san'atni ixtisoslashtirilgan kengashlar orqali moliyalashtiradi. Bunda hukumat umumiy qo'llab-quvvatlash qay darajada ko'rsatilishini belgilaydi, ammo aynan qaysi tashkilotlar yoki

san'atkorlar qo'llab-quvvatlanishi kerakligini aniqlashni o'z zimmasiga olmaydi. Kengash davlat tomonidan tayinlanadigan ishonchli vasiylardan tashkil topadi. Amaldagi hukumat tomonidan lavozimga tayinlangan vasiylar stipendiyalar taqdim etish bo'yicha o'z vazifalarini hukmron partiyaning kundalik manfaatlaridan mustaqil ravishda bajarishlari lozim bo'ladi. Qaror qabul qilish, qoida tariqasida, ekspert baholash tizimi orqali ishlaydigan professional san'atkorlarning (rassomlarning) tavsiyasi bo'yicha kengash tomonidan amalga oshiriladi. Metsenat davlatning siyosiy dinamikasi badiiy hamjamiyat tomonidan ifodalangan o'zgaruvchan san'at shakllari va uslublari javoban rivojlanish tendensiyasiga ega. San'atkor va san'at muassasasining iqtisodiy maqomi kassadagi ommaviy jozibadorlik, xususiy donorlarning didi va xohishlari hamda san'at kengashlaridan olingan grantlarga bog'liq bo'ladi. Bunday madaniy siyosatni amalga oshiradigan davlatlarga Skandinaviya mamlakatlari va Buyuk Britaniya misol bo'la oladi. Davlat-arxitektor (me'mor) tasviriy san'atni vazirlik yoki madaniyat departamenti orqali moliyalashtiradi, rassomlar va badiiy tashkilotlar faoliyatiga oid qarorlar qabul qilish odatda byurokratlar tomonidan amalga oshiriladi. Davlat-arxitektor san'atni ijtimoiy ta'minot siyosati bilan bog'liq maqsadlar tizimining bir qismiga aylantirish orqali uni qo'llab-quvvatlashga intiladi. Ushbu siyosat badiiy mahoratning kasbiy me'yorlaridan ko'ra jamiyat xohlagan san'atni qo'llab-quvvatlashga moyildir. Davlat-arxitektorning siyosiy dinamikasi odatda inqilobiy xususiyatga ega bo'ladi. Davlat-arxitektorda san'atkorning iqtisodiy maqomi, odatda, rasmiy badiiy uyushmalarda a'zo bo'lishi orqali belgilanadi. San'atkor shunday uyushmaga a'zo bo'lishi bilan u, aslida, davlat xizmatchisiga aylanadi va ma'lum darajada daromad barqarorligiga ega bo'ladi. San'at muassasasi deyarli to'liq davlat tomonidan moliyalashtirilib, kassa tushumlari va xususiy xayriyalar ularning moliyaviy holatini belgilashda muhim ahamiyatga ega emas. Biroq, badiiy tanlov masalasida san'at muassasasi odatda davlat va uning organlaridan mustaqil ravishda faoliyat yuritadi. Davlat-arxitektor madaniy siyosatini Fransiyada ko'rish mumkin.

Davlat-injener (muhandis)da davlat badiiy ijodkorlik vositalarining barchasiga egalik qiladi

va faqatgina o'zining siyosiy mezonlariga mos keladigan san'atni qo'llab-quvvatlaydi, ijod jarayoniga esa ko'mak ko'rsatmaydi. Moliyalashtirish haqidagi qarorlar siyosiy arboblardan tomonidan qabul qilinadi, ular asosan kelgusi siyosiy tarbiya maqsadlariga qaratilgan bo'lib, badiiy barkamollikka erishish maqsadlariga xizmat qilmaydi. Injener davlat siyosatining dinamikasi qayta ko'rib chiqishga moyil bo'lib, badiiy yechimlar ko'pincha o'zgaruvchan rasmiy partiya yo'nalishini hisobga olgan holda o'zgartiriladi. San'atkorning iqtisodiy maqomi hukmron partiya tomonidan ma'qullangan rasmiy uyushmalarga a'zo bo'lishi orqali belgilanadi. Ijod bilan shug'ullanuvchi, ammo bunday uyushmaga a'zo bo'lmagan shaxs san'atkor hisoblanmaydi. Barcha san'at muassasalari davlat mulki hisoblanadi. «Totalitar» tuzum uchun davlat-injener siyosati jozibador hisoblanadi, chunki u san'atkorlarning ijodiy salohiyatini rasmiy siyosiy maqsadlarga erishishga yo'naltiradi. Biroq, ko'plab G'arb hukumatlari ham bu siyosatni tijoriy jihatdan barqaror san'at industriyasini yaratish nuqtai nazaridan qonuniy deb hisoblaydi. Bu industriyada foyda ko'rish maqsadi "kapitalistik realizm" yoki "sotsialistik realizm"ga o'xshab g'oyaviy ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, Amerika Qo'shma Shtatlarida Milliy san'at jamg'armasi soliq xarajatlarini rassomlar va san'at tashkilotlari uchun grantlar bilan to'ldiradi va shu bilan "homiya" sifatida namoyon bo'ladi. Buyuk Britaniyada San'at va

kutubxonalar boshqarmasi Buyuk Britaniya san'at kengashi bajarayotgan "homiya" vazifasini bajarib, tanlangan san'at va madaniyat ob'ektlariga bevosita grantlar taqdim etadi (injener sifatida). Fransiyada "arxitektor" roli san'atga xayriya qilishni qo'llab-quvvatlovchi soliq imtiyozlari bilan to'ldiriladi, shu tariqa davlat o'ynaydigan "yordamchi" rol namoyon bo'ladi. [2:34]

XULOSA. Samarali madaniy siyosat muayyan davlatning madaniy taraqqiyoti jarayonida shakllangan ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, insonlar hayotini tashkil etish tamoyillari, shuningdek, umuminsoniy universal me'yor va qadriyatlar majmuasi asosida barpo etiladi. Etnik va mintaqaviy madaniyatlarning o'ziga xosligini inobatga olishga asoslangan bunday tushunish, ular negizida yagona madaniy makon shakllanishining omili hisoblanadi. Zamonaviy madaniy siyosatning asosiy tendensiyalarini tahlil qilish shundan dalolat beradiki, madaniyat sohasida turli subyektlarning ustuvor maqsadlari va faoliyat yo'nalishlarining asosida quyidagi tamoyillar yotadi:

- madaniy xilma-xillik sharoitida o'zaro hamkorlik;
- aholining turli guruhlari uchun madaniy boyliklar va axborot resurslaridan teng foydalanish imkoniyatlarini yaratish;
- jahon madaniy jarayoniga samarali integratsiya;
- yagona madaniy makonni barpo etish;
- madaniyat sohasini bozor sharoitlariga moslashuvini ta'minlash.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бирюкова Т.С. О некоторых тенденциях развития учреждений культуры региона. // XXII Уральские социологические чтения. Национальные проекты и социально-экономическое развитие Уральского региона. – 2020. – С. 394.
2. Горлова И.И., Коваленко Т.В. и др. Региональная культурная политика: методология, институты, практики. Монография. – Москва, – 2019 г., – С. 30-34.
3. Драгичевич-Шешич М., Стойкович Б. Культура: менеджмент, анимация, маркетинг. – Новосибирск, – 2000. – С. 36–37.
4. Моль А. Социодинамика культуры. – М., – 1973. – С. 230–232.
5. Флиер А. Я О новой культурной политике России // Общественные науки и современность. – 1994. – № 5. – С. 14
6. Xalilova A. //Yaponiya: madaniy siyosat va madaniy diplomatiya. O'zbekiston xorijiy tillar ilmiy-metodik elektron jurnal. – 2017. – № 4. –153 b
7. Yudhishtir R.I: "Cultural Policy: Towards a Global Survey", Culture Unbound, 2009, Vol.1, P. 51. <http://www.cultureunbound.ep.liu.se>
8. Юдина А.В. Государственная культурная политика: понятия и модели. // Гуманитарные науки. – 2012. – №7-8, июль-август, – С. 58

REZYUME. Davlatning madaniyatni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishga qaratilgan ilmiy asoslangan faoliyatini tushunish, davlat, jamiyat va madaniyat munosabatlarining modellarini aniqlash, ushbu sohadagi asosiy ustuvor yo'nalishlarni belgilash va ularni amalga oshirishning samarali yo'llarini taklif qilish hamda mazkur jarayonlarda davlatning pozitsiyasini aniqlash madaniy siyosat sohasida ko'p sonli tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi. Maqolada yuqorida keltirilgan muammolar doirasida "madaniy siyosat"ning ijtimoiy-madaniy xususiyatlari, uning tushunchasi va talqini xorijiy hamda mahalliy olimlarning imiy maqolalari asosida yoritildi. Shuningdek, madaniy siyosat modellari retrospektiv tahlil qilindi.

РЕЗЮМЕ. Понимание научно обоснованной деятельности государства, направленной на поддержку и развитие культуры, иными словами, определение моделей взаимоотношений государства, общества и культуры, а также выявление основных приоритетов в этой сфере, предложение ключевых путей их реализации и определение позиции государства в этих процессах требует проведения многочисленных исследований в области культурной политики. В данной статье на основе научных работ зарубежных и отечественных ученых освещены социокультурные особенности "культурной политики", ее концепция и интерпретация в рамках вышеуказанных проблем. Также был проведен ретроспективный анализ моделей культурной политики.

SUMMARY. Understanding the state's scientifically grounded activities aimed at supporting and developing culture-specifically, identifying models of relationships between the state, society, and culture; defining the main priorities in this field; proposing key ways to implement them; and determining the state's position in these processes-necessitates numerous studies in the realm of cultural policy. Within this framework, the article highlights the socio-cultural aspects of "cultural policy", its concept and interpretation, drawing on scientific works by both foreign and local scholars. In addition, models of cultural policy are analyzed retrospectively.